

MOLIYAVIY XIZMATLAR KO'RSATISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI

Jo'rayev Shermat Isroilovich

Buxoro davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning mintaqaviy xususiyatlari hamda ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida hududlarda bank, sug'urta, mikromoliya va raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanish darajasi, ulardan foydalanish imkoniyatlari va mavjud tafovutlar o'rganilgan. Tahlillar natijasida moliyaviy xizmatlar samaradorligi iqtisodiy infratuzilma, raqamli texnologiyalar, moliyaviy savodxonlik va aholining daromad darajasi bilan bog'liqligi aniqlangan. Buxoro viloyati misolida hududiy iqtisodiy va ijtimoiy omillarning moliyaviy xizmatlarga ta'siri baholangan. Tadqiqotda raqamli moliyaviy xizmatlarni kengaytirish, moliyaviy inklyuziyani oshirish va hududiy strategiyalarni takomillashtirish mintaqaviy iqtisodiy faollikni kuchaytirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy xizmatlar, moliyaviy inklyuziya, raqamli banking, mobil banking, fintech, hududiy rivojlanish, moliyaviy savodxonlik, Buxoro viloyati.

Аннотация

В данной статье проанализированы региональные особенности оказания финансовых услуг и их влияние на экономическое развитие. В ходе исследования изучены уровень развития банковских, страховых, микрофинансовых и цифровых финансовых услуг в регионах, возможности их использования и существующие различия. Результаты анализа показали, что эффективность финансовых услуг связана с состоянием экономической инфраструктуры, цифровых технологий, финансовой грамотности и уровнем доходов населения. На примере Бухарской области оценено влияние региональных экономических и социальных факторов на финансовые услуги. В исследовании обосновано, что расширение цифровых финансовых услуг, повышение финансовой инклюзии и совершенствование региональных стратегий способствовали усилению экономической активности регионов.

Ключевые слова: финансовые услуги, финансовая инклюзия, цифровой банкинг, мобильный банкинг, fintech, региональное развитие, финансовая грамотность, Бухарская область.

Abstract

This article analyzed the regional characteristics of financial service provision and their impact on economic development. The study examined the development level of banking, insurance, microfinance, and digital financial services across regions, including accessibility and existing disparities. The findings showed that the efficiency of financial services was closely related to economic infrastructure, digital technologies, financial literacy, and population income levels. Using Bukhara region as an example, the research evaluated the influence of regional economic and social

factors on financial services. The study substantiated that expanding digital financial services, strengthening financial inclusion, and improving regional financial strategies contributed to increasing regional economic activity and improving access to modern financial services.

Keywords: financial services, financial inclusion, digital banking, mobile banking, fintech, regional development, financial literacy, Bukhara region.

KIRISH

Globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy xizmatlar tizimi iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti, tadbirkorlik faoliyati, aholi turmush darajasi va investitsion muhitning rivojlanishi ko‘p jihatdan moliyaviy xizmatlarning samaradorligi hamda hududlar bo‘yicha bir tekis tashkil etilishiga bog‘liqdir. Shu sababli moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishning mintaqaviy xususiyatlarini o‘rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Mintaqalarda moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish tizimi hududning iqtisodiy salohiyati, aholi soni, tadbirkorlik rivojlanganlik darajasi, infratuzilma holati hamda raqamli texnologiyalarning joriy etilish ko‘lami bilan chambarchas bog‘liq. Ayrim hududlarda bank, sug‘urta, mikromoliya va to‘lov xizmatlari keng rivojlangan bo‘lsa, ayrim mintaqalarda ushbu xizmatlardan foydalanish darajasi nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu esa hududlar o‘rtasida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarida tafovutlarni yuzaga keltirmoqda.

O‘zbekistonda moliyaviy xizmatlar bozorini modernizatsiya qilish, bank xizmatlarini raqamlashtirish, masofaviy xizmatlarni rivojlantirish va aholining moliyaviy inklyuziyasini kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, internet-banking, mobil banking, elektron to‘lov tizimlari va fintech texnologiyalarining joriy etilishi mintaqalarda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Biroq internet infratuzilmasining yetarli emasligi, aholining moliyaviy va raqamli savodxonligi pastligi, ayrim hududlarda bank xizmatlari tarmog‘ining cheklangani kabi omillar moliyaviy xizmatlar samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, mintaqaviy moliyaviy xizmatlarning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash va tahlil qilish orqali hududlarda moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish, ularning ommabopligini kengaytirish hamda iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish imkoniyatlari yuzaga keladi. Ayniqsa, zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish hududiy iqtisodiy tenglikni ta’minlash va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ushbu tadqiqotda moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishning mintaqaviy xususiyatlari, ularning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri, mavjud muammolar hamda xizmatlarni takomillashtirish yo‘nalishlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy xizmatlar tizimi va uning hududiy rivojlanish xususiyatlari iqtisodiy oʻsish, moliyaviy inklyuziya va raqamli transformatsiya jarayonlari bilan chambarchas bogʻliq holda koʻplab xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda oʻrganilgan. Jahon banki tadqiqotlarida moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi aholining iqtisodiy faolligi, tadbirkorlik rivojlanishi va daromadlar barqarorligini oshirishning muhim omili sifatida baholangan [14]; [15]. Xususan, moliyaviy inklyuziya bank xizmatlari, kredit, sugʻurta va toʻlov tizimlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qilishi taʼkidlangan [1].

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli moliyaviy xizmatlarning mintaqaviy rivojlanishdagi oʻrni alohida yoritilgan. International Finance Corporation tadqiqotida Oʻzbekistonda moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi soʻnggi yillarda oshib borayotgani, ayniqsa mobil banking va elektron toʻlov tizimlarining kengayishi aholining moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilaganligi qayd etilgan [8]. Visa kompaniyasi tomonidan oʻtkazilgan tahlillarda esa raqamli toʻlov tizimlarining rivojlanishi savdo operatsiyalari tezligini oshirishi, xizmatlar qulayligini taʼminlashi va naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini koʻpaytirishi asoslab berilgan [13].

Oʻzbekiston Markaziy banki hisobotlarida bank tizimini raqamlashtirish va moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida baholangan [2]; [3]. Markaziy bank maʼlumotlariga koʻra, internet-banking, mobil banking va masofaviy toʻlov xizmatlari hududlarda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, xizmatlar tezkorligi va sifati oshishiga xizmat qilmoqda [4]. Shu bilan birga, moliyaviy barqarorlik va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish boʻyicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar moliyaviy xizmatlarga boʻlgan ishonchni mustahkamlashda muhim omil boʻlib xizmat qilayotgani qayd etilgan [5]; [6].

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda ham moliyaviy xizmatlarning hududiy rivojlanishiga taʼsir etuvchi omillar keng oʻrganilgan. X. Mamajonov bank xizmatlari ommabopligini oshirishda moliyaviy savodxonlik, aholiga ochiq axborot berish va xizmatlar haqida tushuntirish ishlarini kuchaytirish muhimligini taʼkidlagan [9]. Maxmudjonovich tadqiqotida esa moliyaviy inklyuziya darajasi aholining bank xizmatlaridan foydalanish faolligi va hududiy iqtisodiy infratuzilma bilan bogʻliqligi asoslab berilgan [10].

Prezident qaror va farmonlarida ham moliyaviy xizmatlar bozorini modernizatsiya qilish, bank tizimini isloh qilish hamda raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish boʻyicha ustuvor vazifalar belgilangan [11]; [12]. Ushbu hujjatlarda hududlarda moliyaviy xizmatlar sifati va ommabopligini oshirish, zamonaviy fintech texnologiyalarini joriy etish hamda aholining moliyaviy savodxonligini kuchaytirish iqtisodiy rivojlanishning muhim yoʻnalishlari sifatida koʻrsatilgan.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda moliyaviy xizmatlar koʻrsatishning mintaqaviy xususiyatlarini oʻrganishda ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning

asosiy maqsadi hududlarda moliyaviy xizmatlarning rivojlanish darajasi, ulardan foydalanish imkoniyatlari, mavjud tafovutlar hamda xizmatlar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil, taqqoslash, statistik tahlil, mantiqiy umumlashtirish, guruhlash va ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv orqali moliyaviy xizmatlar bozori bank, sug'urta, mikromoliya, to'lov tizimlari va raqamli xizmatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida tahlil qilindi. Taqqoslash usuli yordamida mintaqalar bo'yicha moliyaviy xizmatlar rivojlanishidagi farqlar, xizmatlardan foydalanish darajasi va infratuzilma imkoniyatlari solishtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning mintaqaviy xususiyatlari hududlarning iqtisodiy salohiyati, aholi soni, daromad darajasi, tadbirkorlik faolligi, bank infratuzilmasi va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari bilan bevosita bog'liq ekani aniqlandi. Mintaqalarda moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talab bir xil emas: sanoat va xizmat ko'rsatish sohasi rivojlangan hududlarda kredit, lizing, sug'urta, elektron to'lov va internet-banking xizmatlariga talab yuqori bo'lsa, qishloq xo'jaligi ustuvor bo'lgan hududlarda mikrokredit, imtiyozli kredit, omonat va to'lov xizmatlariga ehtiyoj ko'proq namoyon bo'ladi. Muhokamalar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy xizmatlarning hududlar bo'yicha notekis rivojlanishi bir qator omillar bilan izohlanadi. Jumladan, ayrim mintaqalarda bank filiallari va to'lov infratuzilmasining yetarli emasligi, internet sifati pastligi, aholining moliyaviy savodxonligi sustligi hamda raqamli xizmatlardan foydalanish ko'nikmalari to'liq shakllanmagani xizmatlar ommabopligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa aholining bank, sug'urta va boshqa moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi.


Tadqiqot natijalariga ko'ra, moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rnini tobora ortib bormoqda. Mobil banking, internet-banking, elektron hamyonlar va onlayn to'lov tizimlari bank filiallariga borish zaruratini kamaytirib, xizmatlarni tezkor va qulay shaklda ko'rsatish imkonini bermoqda. Ayniqsa, chekka hududlarda raqamli moliyaviy xizmatlar moliyaviy inklyuziyani kengaytirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishda ishonch masalasi muhim ahamiyatga ega. Aholining ayrim qatlamlari onlayn to'lovlar, masofaviy kreditlash yoki internet-banking xizmatlaridan foydalanishda xavfsizlik bo'yicha xavotirga ega. Shu sababli kibernetik xavfsizlikni kuchaytirish, mijozlar ma'lumotlarini himoya qilish, moliyaviy firibgarliklarning oldini olish va foydalanuvchilarga tushunarli axborot berish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, mintaqalarda moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish uchun hududiy yondashuv zarur. Ya'ni har bir mintaqaning iqtisodiy tuzilmasi, aholi ehtiyoji, tadbirkorlik darajasi va infratuzilma holatidan kelib chiqib xizmat turlarini moslashtirish lozim. Masalan, tadbirkorlik rivojlangan hududlarda biznes kreditlari, lizing va elektron hisob-kitob xizmatlarini kengaytirish, qishloq hududlarida esa mikromoliya, agrar sug'urta va masofaviy to'lov xizmatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot asosida quyidagi asosiy natijalar

aniqlandi: moliyaviy xizmatlar rivojlanishida mintaqaviy tafovutlar mavjud; raqamli xizmatlar ushbu tafovutlarni kamaytirish imkoniyatiga ega; aholining moliyaviy va raqamli savodxonligi xizmatlardan foydalanish darajasiga bevosita ta'sir qiladi; moliyaviy xizmatlar sifati mijozlar ishonchi, xavfsizlik va qulaylik bilan chambarchas bog'liq. Moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olish hududlarda iqtisodiy faollikni oshirish, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, aholining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish hamda moliyaviy inklyuziyani ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bois moliyaviy xizmatlar tizimini rivojlantirishda yagona umumiy yondashuv emas, balki har bir hududning o'ziga xos ehtiyoj va imkoniyatlariga mos strategiya ishlab chiqish zarur.

Mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlari bilan moliyaviy xizmatlar tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishda kompleks yondashuv zarur. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda bu bog'liqlik "integratsion rivojlanish modeli" (Regional Financial Development Model) orqali ifodalanadi. Ushbu modelga ko'ra, mintaqaviy iqtisodiy omillar (sanoat, infratuzilma, transport, resurslar) hamda ijtimoiy omillar (ta'lim, aholi tarkibi, madaniyat) o'zaro uzviy ta'sirda bo'lib, moliyaviy xizmatlar tizimining hajmi, sifati va tarmoqlanishini belgilaydi.¹

Buxoro viloyati misolida bu integratsiya quyidagi uch bosqichda namoyon bo'ladi.(1-rasm).



1-rasm: Buxoro viloyati misolida integratsiya bosqichi².

1. Iqtisodiy determinatsiya bosqichi - moliyaviy xizmatlar real sektor talablari asosida shakllanadi.

2. Ijtimoiy adaptatsiya bosqichi - aholining moliyaviy ehtiyojlari va savodxonligi tizimga moslashadi.

¹ Кругман, П., Обстфельд, М., & Мелиц, М. (2018). Международная экономика: теория и политика.

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

3. Texnologik transformatsiya bosqichi - raqamli moliyaviy xizmatlar orqali tizim samaradorligi oshadi.

Bu uchlik Buxoro viloyatining hozirgi rivojlanish bosqichida yaqqol kuzatilmoqda: sanoat tarmoqlari barqaror moliyalashtirilmoqda, aholi mobil bankingdan keng foydalanmoqda, davlat esa raqamli to'lov tizimlarini qo'llab-quvvatlamqda.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, Buxoro viloyatining iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlari moliyaviy xizmatlar tizimining rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi asosiy omillardir. Iqtisodiy infratuzilmaning kuchayishi, transport-kommunikatsiya tizimining yaxshilanishi, aholi daromadlari o'sishi hamda demografik tarkibning yoshlar tomon siljishi moliyaviy xizmatlar segmentlarining kengayishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlik, ijtimoiy kapital va hududlararo nomutanosibliklar hali ham tizim samaradorligiga to'siq bo'layotgan omillar sifatida saqlanib qolmoqda.

Shu bois, Buxoro viloyatida moliyaviy xizmatlar tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- chekka hududlarda moliyaviy inklyuziyani oshirish;
- raqamli moliyaviy xizmatlarni joriy etishni jadallashtirish;
- moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha kompleks dasturlarni kengaytirish;
- mahalliy iqtisodiy va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda moliyaviy strategiyalar ishlab chiqish.

Natijada, mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan holda moliyaviy xizmatlar tizimini rivojlantirish Buxoro viloyati iqtisodiyoti uchun nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki innovatsion o'sishning poydevorini ham yaratadi.

1-jadval

Buxoro viloyatida iqtisodiy va ijtimoiy omillarning moliyaviy xizmatlarga ta'siri¹ (2024-yil holati bo'yicha)

№	Omil turi	Asosiy ko'rsatkichlar	Moliyaviy xizmatlarga ta'sir shakli	Amaliy holat
1	Iqtisodiy infratuzilma	Sanoat ishlab chiqarish hajmi - 21,3 trln so'm	Kredit va investitsiya xizmatlariga talabni oshiradi	Sanoat tarmoqlariga yo'naltirilgan kreditlar 2024-yilda 18% ga o'sgan
2	Qishloq xo'jaligi sektori	48% mehnat resurslari agrar sohada band	Mikrokredit va lizing xizmatlariga talab yuqori	Fermer xo'jaliklariga ajratilgan mikromablag'lar 14% ga ko'paygan
3	Transport va logistika	1,2 ming km yo'llar rekonstruksiya qilingan	Moliyaviy tranzaksiyalarni tezlashtiradi	Banklararo hisob-kitob tezligi 11% ga oshgan

¹ Buxoro viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi hisobotlari (2024), Markaziy bank ma'lumotlari (2024).

№	Omil turi	Asosiy ko'rsatkichlar	Moliyaviy xizmatlarga ta'sir shakli	Amaliy holat
4	Aholining demografik tarkibi	65% aholi mehnatga layoqatli yoshda	Raqamli va mobil moliyaviy xizmatlarga ehtiyoj yuqori	Mobil banking foydalanuvchilari soni 68%
5	Ta'lim va savodxonlik	4 ta OTM, 32 ta kollej faoliyat yuritadi	Moliyaviy savodxonlik oshishiga xizmat qiladi	Moliyaviy rejalashtirishni biluvchilar 46%
6	Hududlararo tafovut	41% bank filiali Buxoro shahri hissasiga to'g'ri keladi	Moliyaviy xizmatlardan foydalanishda nomutanosiblik	Chekka tumanlarda bank infratuzilmasi sust rivojlangan
7	Raqamli kommunikatsiyalar	Internet qamrovi 78%	Raqamli moliyaviy xizmatlarning joriy etilishi	Onlayn to'lovlar ulushi 27% ga yetgan

1-jadvalda Buxoro viloyatining iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmasi moliyaviy xizmatlarga kompleks tarzda ta'sir qilmoqda. Eng kuchli bog'liqlik iqtisodiy infratuzilma, qishloq xo'jaligi va transport-logistika tizimi bilan kuzatiladi. Ayniqsa, agrar soha uchun mo'ljallangan mikrokredit va lizing xizmatlarining o'sishi mintaqaviy iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi tarmoqlari bilan bog'liqligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning mintaqaviy xususiyatlari hududlarning iqtisodiy salohiyati, aholi daromadlari, tadbirkorlik faolligi, infratuzilma rivojlanishi, moliyaviy savodxonlik darajasi hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli moliyaviy xizmatlar tizimini rivojlantirishda barcha hududlarga bir xil yondashuv emas, balki har bir mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqqan holda moslashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy xizmatlarning hududlar bo'yicha notekis rivojlanishi aholining bank, sug'urta, mikromoliya va raqamli to'lov xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, chekka va qishloq hududlarida bank infratuzilmasining yetarli emasligi, internet sifati pastligi hamda aholining raqamli ko'nikmalari sustligi moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga to'sqinlik qilmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, zamonaviy raqamli moliyaviy xizmatlar - internet-banking, mobil banking, elektron to'lov tizimlari va fintech yechimlari - mintaqaviy tafovutlarni kamaytirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu xizmatlar aholiga moliyaviy operatsiyalarni tezkor, qulay va kam xarajat bilan amalga oshirish imkonini beradi, bank filiallariga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi hamda moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshiradi. Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish uchun kiberxavfsizlikni mustahkamlash, mijozlar ma'lumotlarini himoya qilish, aholining moliyaviy va raqamli savodxonligini oshirish, xizmatlar sifati va

ishonchliligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Chunki aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonchi ularning xizmatlardan faol foydalanishiga bevosita ta'sir qiladi. Moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning mintaqaviy xususiyatlarini chuqur o'rganish hududlarda iqtisodiy faollikni oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, aholining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish hamda hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu bois kelgusida moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishda hududiy ehtiyojlarni hisobga olish, raqamli infratuzilmani kengaytirish va innovatsion moliyaviy xizmatlarni joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asian Development Bank. (2025). Assessment of the state of financial inclusion in Uzbekistan.
2. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2021). Digital financial services in the banking system: Progress and solution of the challenges.
3. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2024). Indicators of banking system.
4. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2024). Indicators of payment system.
5. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2025). Financial stability report for 2024.
6. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2025). Moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish konsepsiyasi.
7. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2025). Nationwide financial inclusion and literacy survey.
8. International Finance Corporation. (2020). Financial capability and inclusion in Uzbekistan.
9. Mamajonov, X. (2024). Bank xizmatlari ommabopligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari. CyberLeninka.
10. Maxmudjonovich, X. D. (2025). Moliyaviy inklyuziya: aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasi. CyberLeninka.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-mart PQ-3620-son "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-3593541>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-may PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-4811025>
13. Visa. (2022). Unlocking the benefits of digital payments: Insights from Uzbekistan.
14. World Bank. (2022). The Little Data Book on Financial Inclusion 2022.
15. World Bank. (2025). Financial inclusion.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**